

UDK: 372.862

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MANTIQUIY FIKRLASHNI DASTURIY TA'LIM VOSITALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHNING TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15169129>

Kozimova Sadoqat Olim qizi

*Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi
sadoqatkozimova@mail.ru, Telefon:907203787*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlari, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari hamda amaliy tajribalar asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari o'rganiladi. Shuningdek, bolalarning analitik tafakkur qobiliyatini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

mantiqiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, dasturiy ta'lim vositalari, analitik tafakkur, metodik yondashuvlar.

УДК: 372.862

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль программных образовательных средств в развитии логического мышления у учащихся начального образования. В исследовании изучаются методы развития логического мышления на основе нормативно-правовых документов Республики Узбекистан в сфере образования, научных исследований отечественных и зарубежных ученых, а также практического опыта. Также анализируются методические подходы, направленные на развитие аналитического мышления детей.

Ключевые слова

логическое мышление, начальное образование, программные образовательные средства, аналитическое мышление, методические подходы.

UDC: 372.862

ANALYSIS OF DEVELOPING LOGICAL THINKING IN PRIMARY EDUCATION THROUGH EDUCATIONAL SOFTWARE TOOLS

Abstract

This article examines the role of educational software tools in developing logical thinking among primary school students. The study explores methods for fostering logical thinking based on the legal and normative documents of the Republic of Uzbekistan in the field of education, as well as scientific research by local and foreign scholars and practical experiences. Methodological approaches aimed at enhancing children's analytical thinking abilities are also analyzed.

Keywords

logical thinking, primary education, educational software tools, analytical thinking, methodological approaches.

1. Kirish (Introduction)

Mantiqiy fikrlash boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalarning intellektual rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy qobiliyatlardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha pedagogik faoliyatda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim jarayonining mazmuni va uslublarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan:

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1997-yil, yangi tahriri 2020-yil) ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ta'minlashni nazarda tutadi³². Davlat ta'lim standartlari (DTS) (2021-yil)³³ boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mantiqiy tafakkur qobiliyatini shakllantirishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilaydi. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" mantiqiy fikrlashni shakllantiruvchi topshiriqlarni boshlang'ich sinf o'quv dasturlariga integratsiya qilishni talab qiladi. Xorijiy va o'zbek olimlarining tadqiqotlari mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan.

³² <https://lex.uz/docs/-16188>

³³ <https://lex.uz/docs/-5836605>

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan R.Karomatova va L.Rajabovalarning³⁴ “Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning mantiqiy fikrlashining o’rni va ahamiyati” nomli maqolasida boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan mantiqiy topshiriqlarning tahlili va ular yordamida boshlang’ich sinf o’quvchilarini fikrlashni rivojlantirish metodikasi bayon etilgan.

I.Tursunova va A.Xabibulloyevlarning³⁵ tadqiqot ishlarida o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta’limning rivojlantirish vositalari mantiqiy tafakkurni shakllantirishning samaradorligini tahlil qilingan va mantiqiy fikrlashda matematikaning ahamiyatini, matematika fani bilan o’quv jarayoniga integratsiya qilish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

E.Khudoynazarovning³⁶ “Boshlang’ich ta’limda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati” nomli maqolasida boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini matematika darslarida shakllantirishning xususiyatlari va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

MDH davlatlari olimlaridan V.V. Davydovning³⁷ tadqiqot ishlarida bolalarda mantiqiy tafakkurning shakllanish jarayoni va uning psixologik asoslari haqida batafsil ilmiy tahlillar berilgan.

D.B.Elkoninning³⁸ “Дети и мышление: Психологические основы учебного процесса” nomli tadqiqotlarida maktab yoshidagi bolalarda verbal-mantiqiy fikrlashning rivojlanishi va uning ta’lim jarayonidagi o’rni haqida nazariy ma’lumotlar taqdim etilgan.

Xorijiy olimlardan Jean Piagetning³⁹ “The Child's Conception of the World” nomli ilmiy tadqiqot ishida bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bosqichlarini o’rgangan va tafakkurning evolyutsion bosqichlarini aniqlanganligini ta’kidlashimiz mumkin.

³⁴ Karomatova, R., & Rajabova, L. . (2024). BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINING O’RNI VA AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(12), 147–150. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/54418>

³⁵ Tursunova, I., & Xabibulloyev, A. (2023). BOSHLANG’ICH SINFLARDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIKA FANINING AHAMIYATI. *Interpretation and Researches*, 2(1). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/957>

³⁶ Khudoynazarov E.M. BOSHLANG’ICH TA’LIMDA MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo 1(13), 32-37, 2023./ <https://doi.org/10.5281/zenodo.8369048>

³⁷ Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения. — М., 1986.

³⁸ Эльконин Д. Б. Основные вопросы теории детской игры // Психология и педагогика игры дошкольника. — М., 1966.

³⁹ Jean Piaget. The development of thought : equilibration of cognitive structures /New York : Viking Press, 1977. 213 p.

John Deweyning ta'kidlashicha "How We Think" nomli tadqiqotida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta'lim va refleksiv fikrlashning o'рни haqida ilmiy tahlillar keltirilgan⁴⁰.

Lev Vygotskyning "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes" nomli o'z tadqiqot ishida bolalarda mantiqiy tafakkur va muammoli ta'limning rivojlanishiga ijtimoiy o'zaro ta'sirning ahamiyatini ko'rsatgan⁴¹.

Yuqorida keltirilgan o'zbek va xorijiy olimlar o'z tadqiqot ishlarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Tadqiqotchi olimlarning ishlarini o'rganish orqali boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkur shakllanishining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Ta'lim jarayonida ushbu tadqiqotlar asosida innovatsion va nostandart usullarni qo'llash bolalarning intellektual rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish jarayonining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrda bolalarning tafakkur faoliyati rivojlanib, ularning fikrlash qobiliyatlari turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.


TADDIQOT METODOLOGIYASI.

Mavjud tadqiqot 'tahsilni rivojlantirishda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot empirik, nazariy va eksperimental usullar asosida amalga oshirildi.

Mantiqiy fikrlash — bu hodisa va jarayonlarni mantiqiy bog'lanishlar orqali tushunish, ular orasidagi sabab-oqibat aloqalarini izchil tartibda ko'rib chiqish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat ta'lim jarayonida bilimni samarali o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

⁴⁰ John Dewey How We Think Produced by Juliet Sutherland, Cathy Maxam and the Online Distributed Proofreading Team at <http://www.pgdp.net> September 14, 2011 [eBook #37423]

⁴¹ Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and Creativity in Childhood. Journal of Russian & East European Psychology, 42(1), 7–97. doi:10.1080/10610405.2004.11059210



1.1.1.-rasm. Mantiqiy fikrlashning asosiy xususiyatlari.

Analitik tafakkur — bu masalani qismlarga ajratish, uning asosiy va yordamchi qismlarini ajratib olish va sabab-oqibat aloqalarini aniqlash qobiliyatidir. Bu qobiliyat o'quvchilarning masalalarni tizimli va izchil tahlil qilish imkoniyatini oshiradi.

Bolalarning yoshiga mos keluvchi muammoli vaziyatlar va masalalar ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biridir.

1.1.1-jadval

D.B.Elkoninning bolalikdagi psixik rivojlanishni davrlashtirish chizmasi

Eralar	Davrlar	Xronologik chegaralar	Yetakchi faoliyat ko'rinishi	Faoliyat turi	Davrda bo'lgan rivojlanish xos
Ilk bolalik	Go'daklik	0-1 yosh	Bevosita emotsional muloqot	I	Motivatsion ehtiyoj sohasi
	Ilk bolalik	1-3 yosh	Predmetli harakatli faoliyat	II	Intellectual bilish sohasi
Bolalik	Maktabgacha tarbiya yoshi	3-7 yosh	Rolli o'yin	I	Motivatsion ehtiyoj sohasi
	Kichik maktab yoshi	7-10 yosh	O'qish	II	Intellectual bilish sohasi
O'smirlik	O'smirlik	11-15 yosh	Tengdoshlar bilan intim (jinsiy) shaxsiy muloqot	I	Motivatsion ehtiyoj sohasi
	Ilk o'spirinlik	15-17 yosh	O'quv-kasbiy	II	Intellectual bilish sohasi

Bir yosh davrining (bolalarda ehtiyoj va motivlar ko'proq shakllanadi) ikkinchi boshqa yosh davri bilan (bolalarda u yoki bu faoliyatning aniq operatsiyalari shakllanadi) qonuniyatli almashinuvi sodir bo'ladi. Misol uchun, go'daklikda kattalar bilan emotsional muloqotga, predmetli olamni egallash va ishbilarmon – hamkorlik ehtiyojlari va motivlari yuzaga keladi⁴².

Ushbu masalalar bolalarni sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilishga, qiyoslashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Tahlil Masalalar bolalarning qiziqishlariga mos va kundalik hayotiy tajribalari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bolalar murakkab masalalarni tushunishlari uchun avval oddiyroq topshiriqlar bilan shug'ullanishlari lozim.

Masala: "Daryo bo'yida yashovchi baliqchi kechqurun qayiq bilan baliq tutadi. Agar ertalab daryo ustida tuman bo'lsa, nima sababli u baliq tutishni boshlay olmaydi?" Yechim: O'quvchilar quyoshning issiqligi va tumanning tarqalishi o'rtasidagi bog'lanishni tushunib, sababni aniqlashadi. O'quvchilarning qiziqishini faollashtirish uchun o'yin elementlari va nostandart vazifalardan foydalanish lozim.

O'yin elementlari va nostandart topshiriqlar mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular bolalarda ta'lim jarayoniga qiziqish va faol ishtirokni oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mantiqiy tafakkur bolalarning o'quv jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlab, ularga bilimlarni izchil o'zlashtirish, o'z fikrlarini asoslash va hayotiy masalalarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mantiqiy tafakkur maktab yoshidagi bolalarning nafaqat o'qishdagi muvaffaqiyati, balki kelajakdagi ijtimoiy va intellektual muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion va interaktiv usullar yordamida olib borilgan dars mashg'ulotlari bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuning uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy dasturiy ta'lim vositalarini integratsiya qilish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

⁴² Z.T. Nishanova va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997, 2020-yil yangi tahriri).
2. Davlat ta'lim standartlari (DTS), 2021-yil.
3. ¹Karomatova, R., & Rajabova, L. . (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(12), 147–150. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/54418>
4. ¹ Tursunova, I., & Xabibulloyev, A. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILYATINI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIKA FANINING AHAMIYATI. *Interpretation and Researches*, 2(1).
извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/957>
5. ¹ Khudoynazarov E.M. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo 1(13), 32-37, 2023./ <https://doi.org/10.5281/zenodo.8369048>
6. ¹ Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения. — М., 1986.
7. ¹ Эльконин Д. Б. Основные вопросы теории детской игры // Психология и педагогика игры дошкольника. — М., 1966.
8. ¹ Jean Piaget. The development of thought : equilibration of cognitive structures / New York : Viking Press, 1977. 213 p.
9. ¹ John Dewey How We Think Produced by Juliet Sutherland, Cathy Maxam and the Online Distributed Proofreading Team at <http://www.pgdp.net> September 14, 2011 [eBook #37423]
10. ¹ Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and Creativity in Childhood. *Journal of Russian & East European Psychology*, 42(1), 7–97. doi:10.1080/10610405.2004.11059210
11. ¹ Z.T. Nishanova va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.
12. R. Karomatova, L. Rajabova. "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashining o'rni va ahamiyati", Ilmiy jurnali, 2022.
13. Jean Piaget. "The Child's Conception of the World". Routledge, 1951.
14. John Dewey. "How We Think". D.C. Heath & Co, 1910.
15. Lev Vygotsky. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Harvard University Press, 1978.